

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Jahongirov Burxon</i> O'ZBEKISTON VA BUYUK BRITANIYA MUNOSABATLARI	13-18
<i>Kenjayev Sardor Nurmurod o'g'li</i> AMIR TEMUR DAVRIDA MINTAQADA KATOLIK CHERKOVI FAOLIYATI	19-23
<i>Atamuratova Dilafruz Rashidovna</i> XORAZM TARIXINI O'RGANISHDA "TARJIMON" GAZETASINING AHAMIYATI	24-28
<i>Karimbayeva Salomatxon, Isxakov Bexzod Barkamalovich</i> FARG'ONA VODIYSI O'ZBEKLARI MODDIY MADANIYATIGA DOIR QARASHLAR TAHLILI	29-34
<i>Лукашова Наталья Михайловна</i> ИСТОРИЯ ТАШКЕНТА 30-Х ГОДОВ XVIII - ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЫ XIX ВЕКА, ПРЕДСТАВЛЕННАЯ В РУССКИХ ИСТОЧНИКАХ	35-40
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> 1991–2025-YILLARDA O'ZBEKISTON-HINDISTON DIPLOMATIK VA TA'LIMIY HAMKORLIGINING RIVOJLANISHI: TARIXIY ASOSLAR VA ZAMONAVIY ISTIQBOLLAR	41-44
<i>Turdimuratov Yangiboy Allamuratovich</i> ETNOIQTISODIYOT XO'JALIK FAOLIYATI SEGMENTI SIFATIDA, UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, FUNKSIYALARI VA SHAKLLARI	45-52
<i>Tursunov Farrux G'ulomovich</i> QASHQADARYO VOHASI TOJIKLARINING HUNARMANDCHILIK TAOMILLARIDAGI O'ZGARISHLAR	53-58
<i>Mullajanova Xosiyat Yazdankulovna</i> XIX ASR OXIRIDA RUS GEOGRAFIK JAMIYATNING ILMIY TADQIQOTLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI	59-63
<i>Муминов Азизбек</i> ИСТОРИЯ ЖИЗНИ И НАУЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РАФАЭЛЯ ПАМПЕЛЛИ, ПРИЕХАВШЕГО В ТУРКЕСТАН В НАЧАЛЕ XX ВЕКА	64-69
<i>Suyarov Maxmudjon Sobirjon o'g'li</i> YUNON-BAQTRIYA TANGALARIDA AYOLLAR OBRAZI – DINIY-SIYOSIY RAMZ SIFATIDA	70-74
<i>Tuyev Fazliddin Erkinovich</i> BUXORO, NAVOIY VA SAMARQAND VILOYATLARIDAGI MUZEYLARINING XORIJIY ALOQALARI	75-80
<i>Mamatqulov Bekzod Sherozovich, Shonazarov Elnur Abbos o'gli</i> QASHQADARYO VILOYATIDA AYOLLAR BANDLIGI VA YENGIL SANOAT TARMOQLARINING IJTIMOIIY-IQTISODIY ROLI: TARIXIY TAHLIL VA NATIJALAR	81-85

<i>Jumayeva Shohida Choriyevna</i> SURXONDARYO VILOYATIDA CHORVACHILIK SOHASIDA MUTAXASSISLAR TAYYORLASH JARAYONIDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR	86-90
<i>Azatov Allayar</i> RIVOJLANGAN O'RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDA QUYI AMUDARYO HAVZASI VA "XORAZM DENGIZI" TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLAR	91-99
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdimuminovna</i> LO'LILARDA O'ZLIKNI ANGLASHNING ZAMONAVIY JIHATLARI	100-105
<i>Orunbayev Asli</i> IKKINCHI MASHRUTIYAT JARAYONIDA JÖN TURKLAR HARAKATI VA RESPUBLIKA G'OYALARINING SHAKLLANISHI	106-113
<i>Matyaqbov Toyirjon Sultanbayevich</i> XORAZM VOHASI NEOLIT DAVRI O'RTA BOSQICHI KULOLCHILIGI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR	114-116

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna, Abduljalilov Xojiakbar Abduljalil o'g'li</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA XUSUSIY SEKTORNING O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	117-122
<i>Bazarova Gulnora Gulamovna</i> O'ZBEKISTON IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI.(UMUMIY MAQSADLAR YO'LIDAGI RIVOJLANISH).....	123-127
<i>Yadiyarova Shahnoza</i> THE ROLE OF THE MARKETING SYSTEM IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF LOCAL ENTERPRISES	128-135
<i>Нурмуродов Камолитдин Пирмаматович</i> НАУЧНЫЕ ВЗГЛЯДЫ К ПОНЯТИЮ ФИНАНСОВЫЕ РЕСУРСЫ	136-141
<i>Mamatqulova Muxlisa Mamirjanovna</i> O'RMON XO'JALIGINI MOLIYALASHTIRISHNING BYUDJET VA BYUDJETDAN TASHQARI MANBALAR HISOBIGA MOLIYALASHTIRILISHI	142-146
<i>Olimjonova Sexriyo Muzaffar qizi</i> TURIZM INDUSTRIYASI VA MEHMONDO'STLIK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH	147-150
<i>Anvarova Muhsinakhon Otabek kizi</i> THE ROLE OF BIOSPHERE RESERVES AND NATIONAL PARKS IN TOURISM	151-154

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i> TECHNICAL DEVELOPMENT AS AN ETHICAL-STRATEGIC RESOURCE	155-158
<i>Adilov Zafar Yunusovich</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING INSON KAMOLATI HAQIDAGI FALSAFIY QARASHLARI	159-165

<i>Xo'janova Tamara Jo'raevna</i> YANGI DAVR VA HOZIRGI ZAMON FALSAFASIDA AXBOROT URUSHLARINI O'RGANISHNING PARADIGMALARI	166-170
<i>Narziyev Zubaydillo Ibodilloevich</i> AZIZIDDIN NASAFIYNING "ZUBDAT UL - HAQOYIQ" ASARI TASAVVUF FALSAFASIGA OID MUHIM MANBA	171-175
<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> YOSHLARDA MA'NAVIY VA AXLOQIY QIYMATLAR: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY O'RTASIDAGI TENGSIZLIKLAR VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	176-179
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i> UMAR SUXRAVARDIYNING "AVORIF UL-MAORIF" ASARINING IJTIMOIY-AXLOQIY TAHLILI	180-185
<i>Shamsutdinova Nigina Karimovna</i> ABU ALI IBN SINO IRFONiy QARASHLARI: «TA'BIRI MANZIL» ASARI MISOLIDA	186-190
<i>Pardayeva Marhabo Davlatovna</i> "ODAMIYLIK" TUSHUNCHASINING ZAMONAVIY KONTEKSTDA TRANSFORMATSIYASI	191-197
<i>Aripova Zulfiyaxon Solijonovna</i> SHARQ FALSAFASIDA IJTIMOiy ADOLAT TAMOYILLARI: FOROBIYNING FALSAFIY MEROSI MISOLIDA	198-203
<i>Muxtorova Tutixon</i> ZAMONAVIY DUNYODA YOSHLARNING MA'NAVIY-RUHIY BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY MASALALARI	204-211
<i>Xakimov Abdulboqi</i> YOSHLARDA MANTIQUIY VA TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA FALSAFANING AHAMIYATI	212-216
<i>Sardorbek Jabbarov Buron o'g'li, Mirzakhmedov Abdurashid Mamasidiqovich</i> ISTE'MOLCHILIK JAMIYATIDA AHOLINING ISTE'MOL ME'YORI	217-224
<i>Taniqulov Jonibek Ashirkulovich</i> TA'LIM MADANIYATI VA UNING FALSAFIY FUNDAMENTLARI: KONSEPTUAL YONDASHUVLAR, GNOSEOLOGIK ILDIZLAR VA AKSIOLOGIK TAHLIL	225-229
<i>Бердалиева Севара Дамировна</i> СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТРУДОВ АЛЛАМА ЮСУФА ХОСА ХАДЖИБА В РЕШЕНИИ СОВРЕМЕННЫХ ЭТИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ	230-234
<i>Хушбоков Ойбек Уралович</i> СОВРЕМЕННАЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОНЦЕПТОСФЕРА УЧИТЕЛЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ	235-239
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTER DAVRIDA FRANSIYADA MA'NAVIY MIHITNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	240-244
<i>Muxiddinova Hakimaxon G'ulomovna</i> EKOLOGIK TAFAKKUR VA YASHIL IQTISODIYOT – UCHINCHI RENESSANSNING YANGI FALSAFIY PARADIGMASI SIFATIDA	245-250

<i>Zokirov Mirzo</i> MAMLAKATLARNING TANAZZUL VA TARAQQIYOTINI BELGILOVCHI IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLAR	251-255
--	---------

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Jo'rayev Nabi Narziyevich</i> O'ZBEK MILLIY LINGVOMADANIYATINING QADIMIYLIK VA ZAMONAVIYLIK ASOSLARI	256-262
<i>Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> PRAGMATICS OF GENDERED COMMUNICATION IN ENGLISH	263-267
<i>Zaripova Matluba Kulfidinovna</i> GRAMMATICAL MEANS OF EXPRESSING PEJORATION IN UZBEK AND RUSSIAN	268-271
<i>Sayipova Dilobar Raximovna</i> ADABIYOT FANIGA OID KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARINING AHAMIYATI	272-275
<i>Soibova Gulchiroy Bakhtiyorjon qizi</i> TRANSLATION ISSUES IN THE GENERAL AND SPECIFIC OCCURRENCE OF THE HORSE IN ENGLISH AND UZBEK CULTURES	276-281
<i>Zokirova Shaxzoda Nodirjon qizi</i> TELEVISION AS A RHETORICAL ARENA: THE MANIFESTATION OF CLASSICAL RHETORICAL CANONS IN MODERN TV GENRES	282-288
<i>Abdujalilova Ruxshona Abdug'afforzoda</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KRIMINALINGVISTIK BIRLIKLARINING SHAKLLANISHINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI	289-293
<i>Abduraximova Feruza Boxadirovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA OT YASOVCHI QO'SHIMCHALARINING QIYOSIY TAHLILI	294-300
<i>Jalolova Feruza Normurodovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK XALQ ERTAKLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI	301-305
<i>Ahrorova Nigina Anvarovna</i> MIFOLOGIK TASAVVURLAR MUAYYAN VOQELIK MOHIYATI	306-309
<i>Razikov Baxtiyor Kosimovich</i> MEMLAR TILIDAGI NEOLOGIZM: QOIDABUZARLIKMI YOKI INNOVATSIYAMI? O'ZBEK RAQAMLI DISKURSI MISOLIDA	310-314
<i>Kutbiddinova Nazokatkhon Dovudkhon qizi</i> GENDER-BASED DIFFERENCES IN THE USE OF PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	315-319
<i>Nazarova Sabrina Zafarjon qizi</i> YOZMA NUTQDAGI GRAMMATIK BUZILISHLAR: AGRAMMATIK DISGRAFIYANING LINGVISTIK VA NEYROPSIXOLOGIK ASOSLARI	320-323
<i>Ёлдашалиева Мадина Зиёджон кызы</i> ЖЕНСКОЕ СЧАСТЬЕ КАК ПРИНЯТИЕ ЛЮБВИ И ЗАЩИТЫ В ПОВЕСТИ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА «ТОПОЛЁК МОЙ В КРАСНОЙ КОСЫНКЕ»	324-326

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Salimova Diyoraxon Baxtiyorjon qizi</i> HAVO TRANSPORTIDA TASHUVCHI JAVOBGARLIGINING NAZARIY DOKTRINASI	327-333
<i>Abdullayev Rustam Kaxramanovich</i> JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA RAQAMLI DAKTILOSKOPIYANING IMKONIYATLARI	334-339
<i>Давронов Атобек Равшанович</i> ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ВСПОМОГАТЕЛЬНЫЙ СУБЪЕКТ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА: ДОКТРИНАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ	340-349
<i>Eshturdiyeva Farangiz Baxodir qizi</i> O'ZBEKISTONDA HUQUQ IJODKORLIGI SIYOSATI: STRATEGIK PRINSIPLAR VA ULARGA YANGICHA NAZARIY YONDASHUV	350-355
<i>Исламов Самандар Олимжон угли</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ КРИПТО-АКТИВОВ В СТРАНАХ СНГ: АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ	356-363
<i>Uteniyazov Keulimjay Kuanyshbayevich</i> AYBLOV TUSHUNCHASI, TURLARI VA UNING JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQ TIZIMIDAGI O'RNI	364-370
<i>Ikramov Abrorbek Kamoliddinovich</i> ASSOZ BOYISH NATIJASIDA VUJUDGA KELGAN MAJBURIYATLAR	371-375
<i>Muxitdinova Firuza, Saidakamal Mamasoliyev</i> ZAMONAVIY AXBOROT MAKONIDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	376-380
<i>Бахриддинова Бехруза Бахриддиновна</i> ХАРАКТЕРИСТИКА ОСНОВНЫХ ПОДХОДОВ К СОВРЕМЕННОМУ ПОНИМАНИЮ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЩЕСТВА	381-388
<i>Axmedov Dilshod Baxramovich</i> MA'MURIY SUDLARDA PROKUROR ISHTIROKINI SAMARALI TA'MINLASHNING AMALIY MASALALARI	389-394
<i>Shodmonov Farrux Fayzullo o'g'li</i> DAVLAT BOSHQARUVIDA TRANSCHEGARAVIY SUVLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	395-401
<i>Bozorov Ulug'bek</i> TEXNIKA YO'NALISHI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI KASBIY-HUQUQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MODELI	402-407
<i>Nurullayeva Djamilya Sayfiyevna</i> O'ZBEKISTONDA SPORT TASHKILOTLARINING HUQUQIY MAQOMI VA ULARNING MOLIVAVIY MUSTAQILLIGI	408-413
<i>Reymbayeva Guldaulet Kurbanbayevna</i> TURIZM XIZMATI SOHASIDA ISTE'MOLCHI HUQUQLARINI HUQUQIY TA'MINLASH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI	414-420

<i>Shirinqulov Baxtiyor Iftixor o'g'li</i> MEHNATNI MUHOFAZA QILISH QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI TERGOV QILISHDA KO'ZDAN KECHIRISH TERGOV HARAKATINI O'TKAZISHNING TAKTIK XUSUSIYATLARI	421-428
<i>Salomov Xumoyun</i> OMMAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLARDA QONUNIYLIKNI TA'MINLASHDA PROKURATURA ORGANLARINING AHAMIYATI	429-433
<i>Kakhramonova Aziza</i> THE PRINCIPLE OF INTERNATIONAL LAW ENSURING THE RIGHT OF A CHILD TO LIFE, SURVIVAL AND DEVELOPMENT AND ITS ESSENCE	434-437
<i>Xoliqova Gavhar Ramazon qizi</i> XALQARO XUSUSIY HUQUQDA ALIMENT MAJBURIYATLARINI TARTIBGA SOLISHNING KOLLIZION MASALALARI	438-444
<i>Sharipov Firdavs Xolnazarovich</i> OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASINING QONUN IJODKORLIGI FAOLIYATIDA AYRIM YORDAMCHI TUZILMALARNING ISHTIROKI	445-450
<i>Nugmanov Nugman Abdullayevich, Nizomova Nastarin Vladimirovna</i> PARTICIPATION OF WOMEN IN SHAPING THE DIGITAL LEGAL SPACE	451-456
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARINI EMOTSIONAL VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	457-462
<i>Nabiullin Rishat Xismatullovi, Raxmonov Azizbek Abdullajonovich</i> XORIJDA KORPORATIV SPORTNI RIVOJLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA XORIJ TAJRIBASINI JORIY ETISH	463-468
<i>Xudayberganov Otabek Erkinovich</i> BASKETBOL VOSITALARI VA MUAMMOLI O'QITISH USULLARI YORDAMIDA JISMONIY MADANIYAT FAKULTET TALABALARINING KASBIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	469-474
<i>Nishonova Dilafruz</i> O'QUVCHILARDA IQTISODIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	475-480
<i>Davletyarova Laylo Baxodirovna</i> YENGIL ATLETIKADA TRENERLIK FALSAFASINI RIVOJLANISHI	481-486
<i>Madrahimov Alisher Maxammadibroximovich</i> O'RTA MAKTAB O'QUVCHILARI O'RTASIDA ZO'RAVONLIK PROFILAKTIKASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	487-493
<i>Шавилова Наталья Сергеевна</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА: ВЛИЯНИЕ НА МОТИВАЦИЮ И КАЧЕСТВО ОБУЧЕНИЯ	494-500
<i>Nosirov Murod Zakirovich, Jonibekova Sevara Dilmurod qizi</i> FIZIK JARAYONLARNI KOMPYUTERDA MODELLASHTIRISH ORQALI TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH	501-508

<i>Mattiyeva Feruza Begmatdulabovna</i> ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TARJIMA DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	509-515
<i>Qarshiboyeva Maftuna Komiljon qizi</i> RAQAMLI MUHITDA O'SMIR YOSHDAGI BOLALARNING ESTETIK EHTIYOJLARINING SHAKLLANISHI	516-519
<i>Usmonqulov Jo'rabek Erkin o'g'li, Kubayiva Sarvinoz Asrorbek qizi</i> TALABALARNING KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI	520-525
<i>Xayitova Dilovar Ismat qizi</i> STEAM INTEGRATSIYASI ORQALI AXBOROT-PROTSESSUAL TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI	526-532
<i>Soliyeva Muqaddas Nurnazarovna</i> THE EFFECTIVENESS OF TASK-BASED LANGUAGE TEACHING (TBLT) IN UZBEK CLASSROOMS	533-537

Received: 15 September 2025

Accepted: 1 October 2025

Published: 10 October 2025

Article / Original Paper

PRACTICAL ISSUES OF ENSURING THE EFFECTIVE PARTICIPATION OF THE PROSECUTOR IN ADMINISTRATIVE COURTS

Axmedov Dilshod Baxramovich

Head of department of the General prosecutor's office
of the Republic of Uzbekistan, independent researcher

E-mail: axmedov.d@gmail.com

Abstract. This article analyzes practical issues related to ensuring the effective participation of prosecutors in administrative courts. In particular, it highlights the judicial and legal reforms carried out in recent years and their impact on the activities of prosecutorial bodies. It is shown that the legal foundations of prosecutors' participation have been strengthened through relevant normative legal acts of the Republic of Uzbekistan. The article reveals problems arising in the consideration of administrative cases with prosecutors' involvement, such as violations of legislation in the field of land relations, correction of errors in hokim decisions, and registration of property rights based on forged documents.

Keywords: administrative court, prosecutor participation, judicial and legal reforms, land relations, hokim decisions, forged documents, legal violations, legality, human rights.

MA'MURIY SUDLARDA PROKUROR ISHTIROKINI SAMARALI TA'MINLASHNING AMALIY MASALALARI

Axmedov Dilshod Baxramovich

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i,
mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ma'muriy sudlarda prokuror ishtirokini samarali ta'minlash bilan bog'liq amaliy masalalar tahlil qilingan. Xususan, so'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilgan sud-huquq islohotlari va ularning prokuratura organlari faoliyatiga ta'siri yoritilgan. O'zbekiston Respublikasi tegishli ayrim normativ huquqiy hujjatlar orqali prokurorlar ishtirokining huquqiy asoslari mustahkamlanganligi ko'rsatilgan. Maqolada prokuror ishtirokida ko'rilayotgan ma'muriy ishlar tahlili, yer munosabatlari sohasida yo'l qo'yilgan qonunbuzilishlar, hokim qarorlaridagi xatolarni tuzatish, soxta hujjatlar asosida mulk huquqini ro'yxatdan o'tkazish kabi muammolar ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ma'muriy sud, prokuror ishtiroki, sud-huquq islohotlari, yer munosabatlari, hokim qarorlari, soxta hujjatlar, qonunbuzilish, qonuniylik, inson huquqlari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I10Y2025N67>

Kirish. So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlash, sudlar faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni mustahkamlash, shu orqali fuqarolar hamda tadbirkorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish imkonini beradi. "Yangi O'zbekiston – yangi sud" tamoyili asosida odil sudlovga erishish imkoniyatlarini kengaytirish, sohada ilg'or xalqaro standartlarni joriy etish vazifalari belgilab olindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-yanvardagi "Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar

faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora — tadbirlar to'g'risida"gi PF-11-sonli Farmoni [1] bilan "2023-2026-yillarga mo'ljallangan sud tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning qisqa muddatli" Strategiyasi tasdiqlandi. Unda "Inson qadri uchun" g'oyasi asosida chinakam adolatli sud tizimini shakllantirish va uni xalq manfaati hamda inson qadr-qimmatini samarali himoya qilishga yo'naltirish ustuvor vazifalardan biri etib belgilandi. Shuningdek, mazkur Farmon bilan odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi ixtisoslashgan prokurorlar korpusi tashkil etildi va uning xodimlari zimmasiga sud ishlarini yuritishda taraflarning tortishuvchanligi va tengligi tamoyillarini to'laqonli amalga oshirish, sudlarning xolisligini ta'minlash hamda qonuniy va adolatli sud qarorlari qabul qilinishiga ko'maklashish vazifalari yuklatildi. Boshqacha aytganda, endilikda prokuratura organlari sud jarayonida tortishuv muhitini ta'minlash orqali odil sudlovga erishishga mas'ul tarkibiy qism sifatida faoliyat yuritadi.

Adabiyotlar tahlili. Shu o'rinda ma'muriy protsessual qonunchilikda prokurorning sud ishini yuritishda qanday tartibda ishtirok etish masalasi ham muhim hisoblanadi. I.N.Lukyanova, L.N.Izotovalar sud jarayonida prokurorning ishtirokini an'anaviy shaklda ikki turga bo'ladi, jumladan, prokuror o'z tashabbusi bilan sudlarga da'vo ariza shaklda murojaat etadi; sud jarayonida o'z xulosasini beradi yoxud qonun bo'yicha ishtirok etadi deb fikr bildirishgan [2]. O.S.Rogacheva esa prokurorning sudga da'vo ariza shaklda murojaat qilishi hamda ma'muriy ish bo'yicha o'z xulosasini berish orqali ishtirok etishini ko'rsatadi [3].

A.S.Fedinaning fikricha, ma'muriy sud ishlarini yuritishda prokuror fuqarolik protsessidagi ishtiroki kabi ikki xil shaklda qatnashadi: birinchidan fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarida, ma'lum bir shaxslar yoki davlat manfaatida, o'zini-o'zi boshqarish organlari va boshqa shaxslar manfaatida sudga ariza bilan murojaat qiladi; ikkinchidan, sud protsessida boshqa shaxslarning ma'muriy ishlarida qatnashadi va o'z xulosasini beradi [4].

Ba'zi adabiyotlarda prokurorning ma'muriy sudlarda ishtirok etishining uchinchi shakli sifatida qonuniy kuchga kirmagan va kuchga kirgan sud qarorlariga nisbatan munosabat bildirishi ham ko'rsatilgan [5].

N.A.Chechinaning fikricha, prokuror fuqarolik protsessi ishtirokchilari kabi ishda ishtirok etib, uning asosiy vazifasi jamiyat manfaatlarini, qonuniylikni himoya qilishdan iborat. Prokuror vakil sifatida taklif qilinadi [6]. Boshqa bir olimlar esa prokurorning sud protsessida davlat manfaatlarini ko'zlab uning vakili sifatida ishda ishtirok etishini ko'rsatadi [7].

Sh.Shayzakov esa prokurorning ma'muriy ishda ishtirokini uning alohida huquqiy maqomi bilan tavsiflaydi [8].

MSIYtKda prokuror ishtirok etishi shart bo'lgan toifalar belgilanishi prokuratura organlarining mas'uliyatini yanada kuchaytirishga, fuqarolar va yuridik shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Shuningdek, 2023-yil 25-dekabrda O'zbekiston Respublikasining O'RQ 889-son Qonuni bilan Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksga qo'shimchalar kiritilib, unga ko'ra ma'muriy sudlarda **yerga oid huquqiy munosabatlar** bilan bog'liq ishlar ko'rilishida prokurorlarning ishtiroki majburiy qilib belgilandi.

Natijada, prokurorlarning ma'muriy sudlarda ko'riladigan bu toifadagi ishlarda ishtiroki o'tgan yillarga nisbatan sezilarli darajada oshdi.

Tahlil va natijalar: Birgina, joriy yilning 6 oyida ma'muriy sudlarda hokimlik va kadastr organlarining yerga oid qarorlarini (harakatlari yoki harakatsizligini) haqiqiy emas (g'ayriqonuniy) deb topish bilan bog'liq ko'rilgan **2 867** ta ishlarda prokuror ishtiroki ta'minlanib, ular bo'yicha asosli fikrlar berilgan.

Prokurorlar tomonidan kelishilmagan **160** ta sud qarorlari yuqori instansiyalarda prokuror protestlari asosida qonunga muvofiqlashtirilgan.

Bosh prokuraturada (so'nggi ikki yilda) mazkur toifadagi ishlarning sudlarda ko'rilishi ahvoli o'rganilganida, ushbu yo'nalishda o'z yechimini kutayotgan ayrim masalalar borligi aniqlandi.

Birinchidan, fuqarolarning hokim qarorlarida yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatish haqidagi murojaatlari tuman — shahar hokimliklari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi PF-6243-sonli Farmoniga muvofiq, go'yoki mazkur masalada qaror qabul qilish vakolatlari cheklanganligi vaji bilan murojaatlarga asossiz rad javoblari berib kelingan.

Vaholanki, ushbu Farmon bilan hokimliklarning faqat yerga oid qarorlar qabul qilish vakolati cheklangan.

Misol uchun, Payariq tuman hokimining 2017-yil 14-dekabrdagi uy-joyga mulk huquqini belgilash haqidagi qarorida Sh.Mahamatqulovning otasining ismi ko'rsatilmaganligi bois, qarorga shuni qo'shishni so'rab qilgan murojaati hokimlik tomonidan yuqoridagi Farmonga asosan vakolati yo'qligi vaji bilan rad etilgan.

Samarqand tumanlararo ma'muriy sudining 2024-yil 6-martdagi qarori bilan hokimlikning ushbu harakati g'ayriqonuniy deb topilib, qarorga o'zgartirish kiritish majburiyati yuklatilgan [9].

O'rganishda ma'muriy sudlar tomonidan **412** ta hokim qarorlaridagi xatoliklarni tuzatish yoki o'zgartirish bilan bog'liq ko'rib qanoatlantirilgan ishlarning aynan **357** tasini familiya, ism va ota ismini yozilishidagi xatolarni tuzatish bilan bog'liq ishlar tashkil etgan.

Mahalliy hokimliklar tomonidan qonunni amaliyotda to'g'ri tatbiq etmasliklari fuqarolarning asosli e'tirozlariga hamda ortiqcha sarson bo'lishlariga sabab bo'lgan.

Ikkinchidan, sudlar tomonidan "Ma'muriy tartib — taomillar to'g'risida"gi Qonun talablari buzilganligi (*arizachining ishtiroki ta'minlanmaganligi va h.k.*) asosi bilan **49** ta hokim qarorlari haqiqiy emas deb topilgan.

Shu o'rinda Sh.Shayzakovning ma'muriy tartib taomillar buzilishi oqibatida, fuqarolarning huquqlari va manfaatlariga putur yetkaziladigan bo'lsa, bevosita kelib chiqqan nizolar odil sudlov tomonidan ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiqligi haqidagi fikrlarini quvvatlaymiz [8]. Nazarimizda bu taraflarga ochiq sud majlisida dalillar taqdim etish va o'z huquqlarini himoya qilish imkoniyatini yaratadi.

Sud amaliyotida dastlabki hokim qarorlari o'z kuchida qolishi oqibatida, bu kabi ayrim **noqonuniy** qarorlarga nisbatan manfaatdor idoralar tomonidan munosabat bildirilmasdan qolingan.

Masalan, Farg'ona shahar hokimining 20.02.2020-yildagi qarori bilan J.Isaqovga mahalla binosi hamda mehmonxona qurish uchun 14 700 kv.m. yer maydoni noqonuniy ajratilganligi aniqlanib, shahar hokimining qarori prokuror protestiga asosan 15.03.2021-yilda bekor qilingan.

Farg'ona tumanlararo ma'muriy sudining 19.08.2024-yildagi qarori bilan tuman hokimining ushbu qarori qabul qilinishida **arizachi ishtirok etmaganligi** va **fikri tinglanmaganligi** uchun haqiqiy emas deb topilgan [9].

Biroq, ushbu dastlabki noqonuniy hokim qarorini haqiqiy emas deb topish maqsadida bironta manfaatdor idora tomonidan sudga ariza bilan murojaat qilinmagan.

O'rganishda, dastlabki hokim qarori 15.03.2021-yilda bekor bo'lgan bo'lishiga qaramasdan, J.Isaqov nizoli yerda va boshqa manzilda ikkita ko'p qavatli binolar qurib, ularni boshqa shaxslarga sotib yuborganligi aniqlandi. Ushbu holat bo'yicha tegishli prokuror nazorati hujjatlari qo'llanildi.

Uchinchidan, kadastr organlari tomonidan haqiqiy bo'lmagan (soxta) qarorlarga asosan kadastr hujjatlari shakllantirilib, mulk huquqini davlat ro'yxatidan o'tkazish holatlari ortgan.

Birgina, Qashqadaryo viloyatida **32** ta holatda o'zboshimchalik bilan qurilgan uy — joylarga nisbatan mulkka egalik qilish haqidagi soxta hokim qarorlari tayyorlanib taqdim qilinishi oqibatida, kadastr organlari tomonidan **19 200 kv.m.** maydonda joylashgan mulkka nisbatan egalik huquqi asossiz davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Yakkabog' tumanida esa, "**Qodir meva agro**" MChJ tomonidan Oliy sudga ko'rilmagan ish bo'yicha sud qarori soxtalashtirilib, kadastrlar palatasiga taqdim qilingan va **9 gektar** yer maydoni jamiyat nomiga davlat ro'yxatidan noqonuniy o'tkazilishiga erishgan.

Kadastr pasportini shakllantirish va davlat ro'yxatidan o'tkazishni tartibga soluvchi qonun hujjatlarida kadastr organlariga hujjatlarni haqiqiylikini tekshirish majburiyati yuklatilma-ganligi bois, bu kabi qonunbuzilishi holatlari sodir etilgan.

O'rganish davomida bu toifadagi sud qarorlariga nisbatan keltirilgan jami **65** ta protest qanoatlantirilishi natijasida **21,3 gektar (5 395 kv.m bino — inshoot)** yer maydoni davlat zaxirasiga, **2,3 gektar (7 839 kv.m bino — inshoot)** yer maydoni qonuniy egalari qaytarildi.

Shuningdek, **704 gektar** yer maydoni va **8 636 kv.m bino — inshoot**ni davlat zaxirasiga qaytarish bilan bog'liq noqonuniy hokim qarorlarini haqiqiy emas deb topish haqida sudlarga **7** ta arizalar kiritildi.

Hokimlik va sud qarorlarini soxtalashtirilganligi hamda er maydonlarini noqonuniy o'zlashtirganligi holatlari yuzasidan **4** ta jinoyat ishlari qo'zg'atildi.

Qonunchilikni qo'llashdagi muammolar va bo'shliqlarni to'ldirish, kelgusida bu kabi salbiy holatlarni oldini olish maqsadida Vazirlar Mahkamasiga axborot, qonunbuzilishi holatlari va ularni bartaraf etish maqsadida Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligiga taqdimnoma kiritildi.

Ta'kidlash joizki, boshqarmada soha faoliyati bilan bog'liq qonunlar va qonunosti hujjatlari, Bosh prokurorning sohaviy buyrug'iga asosan sudlarda ma'muriy organlarning qarorlari hamda ular mansabdor shaxslarining harakatlarini nizolashish bilan bog'liq ma'muriy ishlarda prokuror vakolatini samarali ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, sudlar tomonidan qonuniy va asosli qarorlar qabul qilinishiga doimiy ko'maklashilmoqda [10].

Ma'muriy sudlarda ko'riladigan har bir ish prokurorlarning e'tiborida bo'lib, shaxsning buzilgan huquqlari va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilishga alohida ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda.

Sud-huquq islohotlari doirasida prokurorning ma'muriy sudlaridagi ishtiroki tobora takomillashtirilmoqda. Yuqorida ta'kidlanganidek, yangi tartib va qonun normalari

prokurorlarga ma'muriy nizolarda faol ishtirok etish vakolatini berish barobarida, ular zimmasiga sud jarayonida qonuniylikni ta'minlash va fuqarolarning huquqlarini ishonchli himoya qilishdek mas'uliyatli vazifani yuklaydi. Amaliyotda bu o'z samarasini bermogda: prokurorlar ishtirok etgan ishlar bo'yicha noqonuniy qarorlar protest tartibida bekor qilinmogda, yer-mulkka doir qonunbuzarliklar fosh etilib, bartaraf qilinmogda. Muxtasar aytganda, prokurorning odil sudlovni ta'minlashdagi faol ishtiroki sudlar tomonidan qonuniy va asosli qarorlar qabul qilinishiga ko'maklashmogda.

Xususan, mazkur mexanizm orqali fuqarolar hamda davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari sud orqali to'la himoya topishi, sudlarda ish ko'rishda qonuniylik yanada mustahkamlanishi ta'minlanadi.

Nazarimizda, prokuror barcha ma'muriy va ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar bo'yicha sud majlisida ishtirok etishga vakolatli bo'lib, bu orqali prokuror fuqarolar va yuridik shaxslarning, shuningdek jamiyat va davlatning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish imkoniyatiga ega.

Xulosa. Yangi O'zbekiston sharoitida "inson qadri uchun" adolatni ta'minlash tamoyilini amalda ro'yobga chiqarishda ma'muriy sudlarda prokuror ishtirokining samarali yo'lga qo'yilishi muhim o'rin tutadi. Islohotlar doirasida qabul qilingan qonuniy chora-tadbirlar natijasida sudlar faoliyatida davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq tizimli muammolar hal etib borilmogda. Shu bilan birga, prokurorlar o'z vakolatlarini amalga oshirish chog'ida fuqarolarning huquq va erkinliklariga rioya etish, sudning mustaqilligi va xolisligiga xalal bermaslik tamoyillariga qat'iy amal qilmog'i lozim. Zero, adolatli sudlovni ta'minlashda prokuratura va sud tizimlarining hamohang faoliyat yuritishi yuksak natijalarga, yurtimizda qonun ustuvorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. www.lex.uz
2. Лукьянова И. Н. Участие прокурора в гражданском деле и правовая определенность в современном российском гражданском процессе // Законы России: опыт, анализ, практика. 2012. № 9. С. 39–46; Изотова Л. Н. Отдельные процессуальные вопросы участия прокурора в арбитражном процессе // Арбитражный и гражданский процесс. 2013. № 12. С. 11–15.
3. Рогачева О.С., Участие прокурора при рассмотрении отдельных категорий административных дел: формы участия и особенности процессуального положения // Журнал административного судопроизводства. 2018. № 2. С.14-22.
4. Муравьев А.А. и другие. Комментарий к [кодексу](#) административного судопроизводства Российской Федерации // М., 2015, С. 23-24
5. Беспалов Ю. Ф. Комментарий к Кодексу административного судопроизводства Российской Федерации (постатейный научно-практический). М., 2016. С. 108–109; Рыжаков А. П. Постатейный комментарий к Кодексу административного судопроизводства Российской Федерации // СПС «Консультант Плюс»; Участие прокурора в административном судопроизводстве // URL: http://www.prokuror-rostov.ru/law_explanation.
6. Гражданский процесс : учебник / под ред. В. А. Мусина, Н. А. Че-чиной, Д. М. Чечота. М., 2001. С. 85
7. Лукьянова Е. Г. Теория процессуального права. М., 2003. С. 143 ; Чечот Д. М. Участники гражданского процесса. М., 1960. С. 175 ; Чен-цов Н. В. Проблемы защиты интересов в гражданском судопроизводстве. Томск, 1980. С. 115.

8. Shayzakov Sh.I. Ma'muriy sud ishlarini yuritishda prokuror ishtirokining tashkiliy-huquqiy asoslari: qiyosiy-huquqiy tahlil / diss. yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori., T., 2021., B-77
9. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Ma'muriy sud ishlarini yuritishda prokuror vakolatini ta'minlash boshqarmasi umumlashtirish ma'lumotnomasi
10. Bosh prokurorning sohaviy buyrug'i.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).